

## BOSHQARUVNING MOXIYATI VA TEXNALOGIYALARI

**Komilova Mukarram Qobiljonovna**

*SamISI katta o'qituvchisi*

**Xoldorova Sadoqat Farkhadovna**

*SamISI talabasi*

**Samadov Alibek Sobir O'g'li**

*SamISI talabasi*

**Anatatsiya:** *Ushbu maqolada boshqarish tizimlarini qurish pirinsplari va tarmoq resurslarini boshqarishning dinamik tizimi, funktsiyalari va uni tashkil etish. Shu bilan birga, tarmoqda texnik xizmat ko'rsatish tizimi, funktsiyalari va uni tashkil etish haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Tizimlar, texnologiyalar, tasnif, qaror, jarayon, zamonaviy fan, strategiya, taktika, parametr, klass, bosqich, axborotlar tizimi, Сущность и технологии менеджмента.*

**Аннотация.** *В данной статье рассмотрены принципы построения систем управления и динамической системы управления сетевыми ресурсами, функции и ее организация. При этом в сети дается информация о системе технического обслуживания, ее функциях и организации.*

**Ключевые слова:** *Системы, технологии, классификация, решение, процесс, современная наука, стратегия, тактика, параметр, класс, стадия, информационная система,*

**Abstract:** *In this article, the principles of building control systems and the dynamic system of network resource management, functions and its organization. At the same time, information about the technical service system, its functions and its organization is given in the network.*

**Key words:** *Systems, technologies, classification, decision, process, modern science, strategy, tactics, parameter, class, stage, information system,*

### KIRISH

Boshqaruvning umumiy ko'rinishi asosan o'zaro xarakatdagi aniq ikki obektning, bunda bulardan biri boshqaruvning subekti tomonida, ikkinchisi boshqaruvning obekti tomonida turadi. Bu o'zaro xarakatlar uchun quyidagilar muxim xususiyatlarga ega:

- Boshqaruv subekti boshqaruv obektiga qanday funktsiyalarni bajarishi lozim bo'lgan axborotlar tizimini ta'sir qilishi impuls(lari) (boshqaruv buyruqlari) orqali yo'naltiradi;
- Boshqaruv obekti impuls ma'lumotlarini qabul qiladi va vaziyatlarini xisobga olib, bu ma'lumotlarga muvofiq xarakatlarini boshlaydi.

Boshqaruv subekti –bu boshqaruv obektiga ta'sir manbalari xisoblanib, boshqaruv tizimining qismi yoki bo'limidir. Boshqaruv yakka menejer, rahbarlar guruxi jamosi yoki aksionerlar jamosi yig'ilishi orqali amalga oshiriladi. Shunga bog'liq holda boshqaruv subektini turlicha bo'lishi mumkin.

Amerikalik olim K.Killen-“Boshqaruv –bu ishlarni begona qo‘llar bilan bajarishdir” Birinchi xolatda boshqaruvning subekti menejer, keyingilarda –gurux, bo‘limlar, boshqaruv organi.

Professor R.A. Fatxuddinov-tashkilotlarning menejement tizimida 4ta tizim osti tizimlari mavjud;

1. Maqsadli
2. Taminlovchi
3. Funktsional
4. Boshqaruvchi

Asosiy qism: Boshqaruv obekti sifatida ishchi, ishchi guruxlari, mexnat jamoasi qatnashadilar. Boshqaruvning obekti resuslar, jarayonlar, natijalar, inson faoliyatining barcha turlari xam bo‘lishi mumkin. Tashkilotlar o‘zlarining faoliyatlari jarayonlarida moddiy, mexnat, moliyaviy, axborot, texnologik va boshqa resuslardan foydalanish mumkin. SHularga muvofiq, boshqaruv obekti resuslari sifatida quyidagilar ham ishtirok etadi.

- Tovarlar zaxirasi:
- Moliyaviy resuslar:
- Axborotlar maydoni:
- Tashkilotning personal:

Xar qanday tashkilotda boshqaruv jarayoni boshlanishi va ishlab chiqarishi jarayonigacha ko‘plab jarayonlar bo‘lib o‘tadi.

Aloqa-boshqaruvning xar qanday tizimdagi uzliksizlik elementi [vositasi] xisoblanadi. Aloqani boshqaruv maqsadlari uchun xisoblangan subektlar, moddalar, narsalar, energiya va boshqalarning o‘zaro xarakatlari, munosabatlari, bog‘liqlarning alamashinuvi xaqidagi xabarlar deb tushinish kerak.

Keltirilgan tyg‘ri va teskari aloqalar vertical aloqalarga taaluqli. Bulardan tashqari boshqaruv tizimining o‘z oldiga quygan maqsadlariga erishish bo‘yicha subektlarning bir darajali xarakatlarini muvofiq lashtirishini ta‘minlovchi, bilimlar va ko‘nikmalar uzatish, norasmiy munosabatlarni amaga oshirish imkoniyatlarini beruvchi gorizantal aloqalar xam mavjud.

Muxokama: Boshqaruv axborotlar va komunikatsiyalar

Menejmentda komunikatsiyalar. Boshqaruv faoliyatini keng ma‘noda xar qanday tashkilotning murakkab muammolaridan biri bo‘lgan axborotlar almashinuvidan iborat deb ta‘riflash mumkin.

Kommunikatsiya-bu boshqaruv jarayonida qatnashuvchilarning o‘rtalarida ishlarni bajarish bosqichlarining axborotlar bilan o‘zaro bog‘liqligini taminlovchi barqaror aloqa xisoblanadi.

<u>Komunikatsivalarning turlari</u>	<u>Komunikatsiya -larning shakillari</u>	<u>Komunikatsivalarning vositalari</u>
<u>Vertikalli-bu raxbar bilan bo'ysinuvchilar o'rtasidagi axborotlar almashinuvi</u>	<u>Yozma</u> <u>Og'zaki</u> <u>Video</u>	<u>Xujjatlar</u> <u>Nutuq</u> <u>Belgili tizimlar</u>
<u>Gorizontali-bir darajadagi xodimlar o'rtasidagi aloqalami uzatish jaravoni</u>	<u>Eloktronli</u> <u>Xis-xavojonli</u>	<u>Elektron vositali aloqa</u> <u>Video va telekommunikatsiyalar</u> <u>Insonning fiziologik tizimlari</u>
<u>Verballi-(og'zaki so'z bilan)so'zlar vordamida axborotlarni uzatish muloqat qilish jaravoni.</u>		
<u>Verbalsiz-mimikalar,jestlar,qarashlar,xar akatlar:</u> <u>Rasmiv,Norasmiy,Emfatali (xis-xavojonli),Intellektualli axborotlar vordamida muloqat qilish</u>		

### Natija va tahlil

Tashkiliy qarorlar-tashkiliy vazifalarni echishda raxbarning boshqaruv funksiyalarning amalga oshirishi jarayonlari xaqidagi qarorlarini aniq belgilay olishi xisoblanadi. Tashkiliy qarorlar ququyilgan maqsad tomon xarakatlanishi boshlaydi. Funktsional boshqaruv tizimi. Bu boshqaruv tizimi rahbarni va tizim bo'linmalarini har xil vazifalarga va aniq bo'linmalarda boshqaruv faoliyatini ixtisoslashtirishga qaratilgan bo'lib, har bir boshqaruv bo'g'iniga muayyan masalalar biriktirib qo'yiladi. Masalan, biri boshqaruv idorasini rejalashtirish bilan, ikkinchisi texnologik, uchunchisi ta'minot, to'rtinchisi mahsulot sifatini nazorat qilish va h.k. lar bilan shug'ullanadi. Bunda rahbarning vakolatlari ancha cheklangan bo'lib, qabul qilinayotgan qarorlarning sifatini yaxshilashga imkoniyat yaratadi. Funktsional bo'linmalar bevosita barcha quyi tizim bo'linmalarining faoliyatini boshqaradi. Bunda ular umumiy ish natijalariga javob bermasdan, faqat o'zlari bajaradigan boshqaruv faoliyatigagina javob beradilar. Bu funktsional bo'linmalar huquq doiralarning javobgarlik doirasidan ancha keng bo'lishiga olib keladi.

Muntazam-funksional boshqaruv tizimi. Bunda asosiy boshqaruv tizimi muntazam boshqaruv hisoblanadi (10.3-rasmga qarang). Hamma boshqaruv bosqichlarida va mustaqil uchastkalarini boshqarish faoliyatida muntazam rahbarlar ajratiladi. Ularga ishlab chiqarish - xo'jalik faoliyatini yakka boshchilik asosida boshqarish huquqi berilgan bo'lib, u olingan natijalarga to'liq javob beradi. Boshqaruvning muntazam turida ishlaydigan rahbarlarga malakali yordam ko'rsatish uchun funktsional va ma'muriy tashkilotlar tashkil etiladi. Bu tashkilotlarning vazifasi boshqaruv qarorini tayyorlash va rahbarlarga malakali yordam berishdan iborat. Funktsional idora bo'linmalari, unda ishlaydigan mutaxassislar soni boshqaruv faoliyatining xarakteri va uning hajmiga bog'liq. Boshqaruvni funktsional asosida tashkil etish murakkab masalalarni yechishga imkon yaratadi va uning ixtisoslashishi

boshqaruv samaradorligining kasb mahorati darajasining o'sishini ta'minlaydi.  
Xulosa va takliflar.

Zamanoviy boshqaruvning turlanishi bashoratlash va ilmiy oldindan ko'ra bilish jarayonlaridan iborat asoslarga tayangan xolda, taraqiyotning boshqalarga nisbatan ilgarilab boruvchi texnologiyalardan foydalanib boshqaruv tizimlarining majmualari rivojlanishiga ega bo'lish kerak. Har qanday tizimlarni (obektlarni) samarali boshqarishinson faoliyatining turli soxalarda qo'llaniladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Pardayev Olim Mamayunusovich. <<Menejement>> .O'quv qo'llanmasida
2. TCP\IP protokoli pog'onalari // "Ta'lim tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv, muammo va yechimlar" ilmiy masofaviy konferensiyasi // Iyun 2022
3. Tarmoqdagi boshqaruvni qo'llanilishi hamda telekommunikatsiya boshqaruv tizimlari // Modern scientific challenges and trends: a collection scientific works of the International scientific conference // 7-9 June.
4. Mukarram K. Issues Of The Social Significance Of Education In Uzbekistan // Ta'lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali. – 2022. – C. 25-27.
5. Kobiljonovna K. M. et al. METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF MODERN METHODS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE // E Conference Zone. – 2024. – C. 10-14.
6. Kobiljonovna K. M. PROJECT ACTIVITIES IN RUSSIAN LANGUAGE CLASSES // INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2023. – T. 12. – №. 12. – C. 70-74.
7. Komilovakomilova M. K. Facilitating interactive language learning in groups with non-russian language of study // Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. 6. – C. 1065-1068.